

ZULFIYA QALBIMIZDA VA YURAGIMIZDA

Mahliyo Sherliqizi Axmadaliyeva

CHDPU Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Zulfiyaning hayoti yo‘li haqida va ijodiga nazar solish mumkim. Zulfiya ijodida o‘zbek ayolining taqdiri muhim o‘rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya sevgi va sadoqat timsolida ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: She’riyat, ijod, oraz, sadoqat, poetika, sevgi, g‘oya

Abstract:

In this article, I can look at Zulfiya's life and work. The fate of the Uzbek woman occupies an important place in Zulfiya's work, and her active role in the country's life is of great importance. We can see Zulfiya as a symbol of love and loyalty.

Keywords: Poetry, creativity, love, loyalty, poetics, love, idea.

Zulfiya Isroilova — taniqli va iqtidorli o‘zbek shoirasi. Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavar kurashgan ayol. Zulfiya she’riyatining nufuzi — bizning dabdabali murakkab davrimizning haqqoniy ifodasi, o‘ziga xosligi, zamondoshlarimizning qalbi va harakatlarining yorqin tasviridadir.

Zulfiya ijodida o‘zbek ayolining taqdiri muhim o‘rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya uzoq o‘tmishda ayol o‘rni uy-ro‘zg‘or yumushlari doirasida bo‘lganligini, uyda ham bek, ham hukmdor bo‘lgan eriga itoatli cho‘ri bo‘lib, bosh egishi lozim bo‘lganligini yashirmaydi. Zulfiya she’riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho‘qqisi bo‘lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she’rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo‘yoq va timsollarda gavdalanadi. Zulfiyaning oljanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug‘yonlarini o‘tkir bilimdoni bo‘lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she’rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarları.

O‘tgan asr chin hayotini tiklash zaruriyati tug‘ilganda, o‘sha asr chin adabiyotiga ehtiyoj sezamiz. Zero, bu asr juda murakkab va qaltsi jarayonlarni boshidan kechirdi, talay-talay qalamkashning yuragiga kishan, og‘ziga qulf soldi. O‘sha og‘ir kunlarda yashab ham, har qalay boy berishlar va cheklanishlar bilan ham dovruq taratgan, iste’dod kuchi bilan ezgulik yonida turgan, dardlarga malham bosgan ovozlar uchraydi. Ular yonib, hamdard bo‘lib, o‘zida yashashga imkon topdi. Zulfiyaxonim she’riyati shunday martabaga yeta olgan, deya taskin bilan ayta olamiz. Zulfiyaxonimning erta bahor epkiniday beg‘ubor ilk she’rlari umid va havas uyg‘otdi. “Hijron kunlarida” turkumi bilan boshlangan dardli muhabbat lirikasi esa ko‘ngillarni

butunasiga ishg‘ol etdi, uni shoiralarimizning birinchi qatoriga olib chiqdi. Bu tasodif emas edi. Zulfiya umr yo‘lida mardona turib, dovonlardan-dovonlarga oshiqdi, odamiylikning eng muhim burchlari va vazifalaridan so‘zladi. Alalxusus, qirqinchi yillar oxiri va elliinchchi yillar boshidan boshlab, ana shu missiya — o‘zbek qizi, o‘zbek shoirasining ovozi faqat sovetlar yurtida emas, balki qit’alar osha yangradi. Zulfiyaning o‘zbek she’riyatida unutilmas sahifalar bo‘lib qolgan bir talay go‘zal va yoniq she’rlari bor. “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Qatra”, “Daraxt”, “Bulut o‘yini”, “O‘zimga”, “Men o‘tgan umrimga achinmay qo‘ydim...” kabi o‘nlab she’rlari va “Mushoira” dostoni shular jumlasidan. Ular turli tillarga tarjima bo‘ldi. Zulfiyaxonim yangroq va jonkuyar ovozi bilan zamonning tabarruk va jasur onasi sifatida tanildi, tinchlik va do‘stlik ishiga ulug‘ va faxrli hissasini qo‘shdi. Yurtimizning asl nizomlari ta’qiqlangan va kansitilgan zamonda o‘zbegimning bir qizi aziz so‘zi bilan dunyo e’tirofiga sazovor bo‘lgani, rosti, mo‘jizaning o‘zi edi. Zulfiyaxonimning pokiza shaxsi buyuk momolarimizning eng ulug‘ fazilatlarini o‘zida jamlab, sadoqat va vafo timsoliga aylangani millat obro‘yiga obro‘ qo‘shdi, uning nurli va pokdomon siymosini dunyoga ko‘rsatib, milliy qadrimizning go‘zal bir namoyishi bo‘ldi. Va albatta, shu jonnisor fazilatlari bilan istiqlolning birinchi kunlaridanoq Vatan koriga yaradi, mustaqillik g‘oyasini yaratishda ibrat va ko‘zgu bo‘ldi.

Zulfiyaxonimning baxti — u bolaligida shuuriga quyilgan ulug‘ kalomlar havosini simirib, ozmi-ko‘pmi milliy qadriyatlar nimaligini bilganidadir. Zulfiya ijodida o‘zbek ayolinining taqdiri muhim o‘rin egallaydi, uning mamlakat hayotidagi faol o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Zulfiya uzoq o‘tmishda ayol o‘rni uy-ro‘zg‘or yumushlari doirasida bo‘lganligini, uyda ham bek, ham hukmdor bo‘lgan eriga itoatli cho‘ri bo‘lib, bosh egishi lozim bo‘lganligini yashirmaydi. Zulfiya she’riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho‘qqisi bo‘lmish odamzotga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she’rlarida tabiat och ranglarda, yorqin bo‘yoq va timsollarda gavdalanadi.

Zulfiyaning oljanoblik, jasorat, haqqoni y xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimi tuyg‘ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug‘yonlarini o‘tkir bilimdoni bo‘lib, turli janrlarda asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, elegiyalar, nasriy she’rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlarida nashr etilgan. Urush yillari u vatanparvarlik she’rlarini yozgan. U tomonidan, shuningdek, o‘zbek bastakorlarining operalariga librettolar ham yozilgan, masalan, “Zaynab va Omon” operasiga libretto. Shoiraning eng mashhur she’rlari: “Xulkar” (1947), “Men tongni kuylayman” (1950), “Yuragimga yaqin kishilar” (1958), “Yurak yo‘lda” (1966), “Mening bahorim” (1967), “Sharshara” (1969) kabilardir.

Zulfiyaning ayrim she’rlari rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, “Men tongni kuylayman” (1950) (“Ya poyu zaryu”), rus tiliga 1951 yil tarjima qilingan.

1984 yil “Jamiyat mehnat qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgan. SSSR davlat mukofoti laureatiga aylangan. 2004 yil O‘zbekistonda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etilib, adabiyot, san’at, ilm-fan, madaniyat va ta’lim sohalaridagi muvaffaqiyatga erishgan, yoshi 14 dan 22 yoshgacha bo‘lgan qizlarga har yili 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami kuni taqdim

etiladi. Zulfiyaning butun she'riy ijodi — O'zbekiston diyorining ilhom madhiyasi, inson mehnati madhiyasi, sevgi va yerdagi adolat uchun madhiyasidir.

Zulfiyaning qoyilmaqom ijod mehnatiga ko'p yillar bo'ldi, respublika hayoti va uning xalqi taqdirlida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zulfiyaning "sevgining alangali kuchi bugun ham o'quvchining qalbini isitadi, yuragini va ongini hayajonlantiradi". Zulfiya sevgi va sadoqat timsoli sifatida o'quvchilar xotirasida muxirlangan.

ADABIYOTLAR

1. Karimov N.Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. – T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Umurova G. (2014). Shoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. -Toshkent, "Navro'z", 156 b.
3. Umurova G. (2018). Zulfiya lirkasida tuyg'ular tadriji // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 4(4), B.83-88.
4. Umurova G. (2017). Zulfiya badiiy mahoratining ba'zi qirralari //O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 5(5), B.85-90.
5. Zulfiya. Adabiy o'ylar. – Toshkent: "Fan", 1985. 6 Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2006. 168-б. www.scientificprogress.uz «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 //// \\\\ Volume: 1, ISSUE: 5 134
6. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. – Toshkent: SHarq, 2006. 168-b.
7. Mahmudova D. Halima.esse-qissa. Toshkent, "O'zbekiston", 2016.
8. G'afurov I. Zulfiya siymosi // SHarq yulduzi, 2015, №1. – В. 114-120.
9. SHarafiddinov O. Sizni sog'indim, Zulfiya opa! – Ijodni anglash baxti. – T., SHarq, 2004.
10. Hojieva O. To'rt tanho.Toshkent, "O'zbekiston", 2013.
11. А.Р.Давлатова М.Ш.Ахмадалиева (2021). ЖАДИД ДРАМАТУРГИЯСИДА БАРКАМОЛ ШАХС ВА ИДЕАЛ ЖАМИЯТ ТАЛҚИНИ. Academic research in educational sciences(5).
12. Мадрахимова, И. Б. (2022). Образ осени в поэзии Зульфии. *Роль науки в развитии современного государства*, 1(1), 190-197.
13. Inobat Bakhodirova Madrakhimova. (2022). THE INTERPRETATION OF AUTUMN IN THE POETRY OF USMAN AZIM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 336–340. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/2811>
14. qizi Axmadaliyeva M. S. LIRIK QAHRAMON RUHIYATI TASVIRIDA BADIY VOSITALARNING O 'RNI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 7. – С. 44-46.
15. Ахмадалиева М. Ш. Роль литературной критики в саморазвитии писателя //Мугаллим. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 14-17.
16. Ahmadaliyeva M. S. Text and interpretation in discourse analysis //Trends in Education Foreign Languages and International Economics. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 382-386.

17. Matkarimova, S. S. Q. (2022). MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULDA O ‘RGANISH (10-SINF ADABIYOT DARSЛИGI) MISOLIDA. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(10), 425-429.
18. Сулейманова, С. А. (2021). Дервишество русской и русскоязычной литературе. Academic research in educational sciences, 2(8), 444-448.